

VOYAGA YETMAGANLAR HUQUQBUZARLIGI: IJTIMOY-PSIXOLOGIK TAHLIL

Akramova Shaxnoza Valiyevna

Navoiy innovatsiyalar universiteti talabasi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.18468131>

Annotatsiya: Maqolada voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbuzarliklarning shakllanishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik va kriminologik omillar tahlil qilinadi. Tadqiqotda oilaviy muhit, ta'lim muassasalari va axborot makonining ta'siri, shuningdek, voyaga yetmagan huquqbuzar shaxsining asosiy xususiyatlari yoritiladi.

Kalit so'zlar: voyaga yetmaganlar, huquqbuzarlik, ijtimoiy-psixologik omillar, kriminologik tavsif, profilaktika.

Аннотация: В статье анализируются социально-психологические и криминологические факторы, влияющие на формирование правонарушений среди несовершеннолетних. Рассматривается роль семьи, образовательной среды и информационного пространства, а также основные характеристики личности несовершеннолетнего правонарушителя.

Ключевые слова: несовершеннолетние, правонарушение, социально-психологические факторы, криминологическая характеристика, профилактика.

Abstract: The article examines socio-psychological and criminological factors influencing juvenile delinquency. The role of family, educational environment, and information space, as well as key characteristics of juvenile offenders, are analyzed.

Keywords: juveniles, delinquency, socio-psychological factors, criminological analysis, prevention.

Kirish. Bugungi kunda voyaga yetmaganlar o'rtasida jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning ko'payib borishi jamiyat barqarorligi va kelajak taraqqiyoti uchun jiddiy xavf omillaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Ayniqsa, globallashuv, axborot oqimining keskin tezlashuvi, ijtimoiy-madaniy qadriyatlar transformatsiyasi sharoitida voyaga yetmaganlarning xulq-atvori murakkablashib, huquqbuzarlikka moyillikning yangi shakllari yuzaga chiqmoqda. Shu bois ushbu hodisani faqat huquqiy nuqtayi nazardan emas, balki ijtimoiy-psixologik va kriminologik yondashuv asosida tahlil qilish dolzarb ilmiy vazifaga aylanmoqda.

O'zbekiston Respublikasida mustaqillikning ilk yillaridanoq yoshlar va voyaga yetmaganlar masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Jumladan, 1991 yil 20 noyabrda "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida"gi Qonunning qabul qilinishi, 2016 yilda uning yangi tahrirda tasdiqlanishi, shuningdek, "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida", "Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida", "Bolalarni ularning sog'lig'iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish to'g'risida"gi qonunlarning qabul qilinishi mazkur yo'nalishdagi huquqiy asoslarning mustahkamligini ko'rsatadi.

Natija va muhokama. Voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbuzarliklarning yuzaga kelishi shaxsning ijtimoiylashuv jarayonida shakllanadigan psixologik holatlar hamda ijtimoiy muhit bilan uzviy bog'liq murakkab hodisadir. Ushbu jarayon, odatda, keskin va og'ir jinoyatlar bilan emas, balki kundalik hayotda takrorlanib boradigan xulqiy og'ishlar orqali bosqichma-

bosqich rivojlanadi. Dars qoldirish, o'qishga befarqlik, intizom qoidalariga rioya etmaslik, tengdoshlar bilan tez-tez nizoga kirishish kabi holatlar dastlab ahamiyatsizdek tuyulsa-da, vaqt o'tishi bilan huquqbuzarlikka moyil xulqning barqarorlashuviga olib keladi.

Mazkur holatlar O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlarda ham alohida e'tirof etilmoqda. Jumladan, "Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida"gi Qonunda huquqbuzarliklarning oldini olish masalasi davlat siyosatining muhim yo'nalishi sifatida belgilangan bo'lib, unda oila, ta'lim muassasalari, mahalla va huquqni muhofaza qiluvchi organlarning o'zaro hamkorligi asosiy tamoyil sifatida qayd etilgan[1]. So'nggi besh yil davomida ushbu yo'nalishda bir qator qonun loyihalari va hukumat qarorlari ishlab chiqilgani ham ushbu muammoning dolzarbligini tasdiqlaydi.

Ilmiy tahlillar shuni ko'rsatadiki, huquqbuzarlikka moyil xulqning shakllanishida oilaviy muhitning psixologik holati muhim o'rin tutadi. Ota-onalar o'rtasidagi nizolar, tarbiyadagi izchillikning yo'qligi, farzand bilan muloqotning sustligi yoki haddan tashqari qattiqqo'llik voyaga yetmaganlarda tajovuzkorlik, norozilik va ijtimoiy begonalashuv hissini kuchaytiradi. Shu bois davlat siyosatida ham oilani mustahkamlash va farzand tarbiyasidagi mas'uliyatni oshirish masalalariga ustuvor ahamiyat berilmoqda. Bu borada Vazirlar Mahkamasining voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatishni takomillashtirishga qaratilgan qarorlarida ijtimoiy xavfli oilalar bilan manzilli ishlash mexanizmlari belgilangan[2].

Maktab muhitining ijtimoiy-psixologik ta'siri ham huquqbuzarliklarning shakllanishida muhim omil hisoblanadi. Ta'lim muassasasi nafaqat bilim beruvchi, balki tarbiyaviy va ijtimoiy nazoratni ta'minlovchi institut sifatida voyaga yetmaganlarning xulq-atvoriga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Rasmiy statistik kuzatuvlarga ko'ra, huquqbuzarliklar ko'proq muntazam dars qoldiruvchi yoki ta'lim jarayonidan chetlashgan o'smirlar orasida uchraydi. Jahon miqyosida ham huquqbuzarliklar asosan 14–18 yosh oralig'ida qayd etilib, bu davr shaxsning psixologik jihatdan eng beqaror bosqichi ekanligi bilan izohlanadi[3]. O'zbekiston bo'yicha rasmiy ma'lumotlarda esa huquqbuzarlikka moyillik, asosan, 16–17 yosh toifasida ko'proq kuzatilishi qayd etilgan[4].

Voyaga yetmagan huquqbuzar shaxsini tahlil qilishda uni tavsiflovchi bir qator asosiy mezonlar ajratib ko'rsatiladi. Jumladan, A.I. Alekseyev voyaga yetmagan huquqbuzar shaxsini baholashda ijtimoiy-demografik ko'rsatkichlar, jinoiy-huquqiy holat, axloqiy va psixologik sifatlar, shuningdek, shaxsning ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan fiziologik xususiyatlarini kompleks tarzda o'rganish zarurligini ta'kidlaydi[5]. Ushbu yondashuv voyaga yetmaganlarning huquqbuzarlikka moyilligini faqat bitta omil bilan emas, balki shaxs rivojining turli jihatlari uyg'unligi orqali tushuntirish imkonini beradi.

Voyaga yetmaganlar bilan ishlash masalasiga davlat rahbari tomonidan ham doimiy e'tibor qaratib kelinmoqda. Prezidentimiz yoshlarga oid siyosatga bag'ishlangan yig'ilishida: "Huquqbuzarlikning oldini olish jazodan emas, tarbiya va e'tibordan boshlanishi kerak", deb ta'kidlab, muammoni ijtimoiy-psixologik yondashuv asosida hal etish zarurligini alohida qayd etgan[6]. Ushbu fikr Prezident qaror va farmoyishlarida ham o'z aksini topib, profilaktika, erta aniqlash va tarbiyaviy ta'sir choralari ustuvorlik berilmoqda.

Zamonaviy axborot makoni ham huquqbuzarliklarning ijtimoiy-psixologik omillari qatorida alohida ahamiyat kasb etadi. Internet va ijtimoiy tarmoqlarda tarqatilayotgan zo'ravonlikni oqlovchi va noqonuniy xatti-harakatlarni targ'ib qiluvchi materiallar voyaga

yetmaganlar ongida xulqiy me'yorlarning buzilishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli oxirgi yillarda qabul qilingan huquqiy hujjatlarda bolalarni zararli axborotlardan himoya qilish va raqamli muhitda xavfsizlikni ta'minlash masalalariga ham alohida e'tibor qaratilmoqda.

Xulosa. Prezident Shavkat Mirziyoyev 2024 yil fevral oyida voyaga yetmaganlar ishtirokidagi jinoyatlar masalasiga to'xtalar ekan, yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash orqali ularda huquqbuzarlikka nisbatan barqaror ichki qarshilik — ya'ni "jinoyatga qarshi immunitet"ni shakllantirish zarurligini alohida ta'kidladi⁴. Mazkur yondashuv asosida ta'lim muassasalarida profilaktik ishlarni kuchaytirish maqsadida maktab inspektor-psixologlari faoliyatini takomillashtirish bo'yicha institutsional o'zgarishlar amalga oshirildi. Xususan, ularning faoliyati Ichki ishlar vazirligi tizimidan Milliy gvardiya tizimiga o'tkazilib, maktablarda davomatni ta'minlash va erta profilaktik nazoratni kuchaytirishga qaratilgan mexanizmlar joriy etildi.

Shu bilan birga, davlat rahbari voyaga yetmaganlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, ularni kasbga yo'naltirish, ta'lim-tarbiya jarayonida ota-onalar hamda mahalla faollari bilan uzviy hamkorlikni yo'lga qo'yish muhimligini qayd etdi. Aynan shu maqsadlarni amalga oshirish doirasida 2025 yilda umumiy o'rta ta'lim muassasalarida "dolzarb 90 kunlik" profilaktik tadbirlar tizimi joriy etilib, u voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar majmuasi sifatida belgilandi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. O'zbekiston Respublikasi. "Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida"gi Qonun (O'RQ-263). — Toshkent, 2010
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. Voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida qaror. — Toshkent, 2023
3. Грудинин Н.С. Личность несовершеннолетнего российского преступника и механизмы ее формирования // Научный Вестник. 2016. № 2. С. 20–27.
4. Sh.M.Samandarov. Voyaga yetmagan jinoyatchilar shaxsining kriminologik tavsifi // *Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences* ilmiy jurnali. — 2022. — 2-jild, 4-son. — B. 1-6
5. Голубничая Л.С. Криминологическая характеристика личности несовершеннолетнего преступника // Амурский научный вестник. 2015. № 1. С. 158–172.
6. "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi qonun (2016-yil 14 sentabr) <https://strategy.uz/index.php?news=615&lang=uz>.